



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYAVIY MULK HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH

Axmedjonov Abdufato

*SAMISI, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari
nomzodi.*

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt, blokcheyn va buxgalteriya dasturlaridan foydalangan holda investitsiyaviy ko'chmas mulklar hisobini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari, afzalliklari va O'zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, buxgalteriya dasturlari, 1C, ERP, investitsiyaviy mulk.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot davrida an'anaviy buxgalteriya hisobi usullari samarasiz bo'lib qolmoqda. Investitsiyaviy ko'chmas mulklar kabi murakkab ob'ektlarni hisobga olishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish hisob sifatini oshirish va xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu mavzu O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiyani joriy etishning dolzarb masalasiga bag'ishlangan.

Investitsiyaviy ko'chmas mulkning foydalanish qiymati deganda, uning qiymati oshishi yoki operasion ijaradan olinishi kutilayotgan summa tushuniladi. IKMning foydalanish qiymati kelgusidagi pul oqimlarining kutilayotgan joriy diskontlashgan qiymatini aks ettiradi.

Masalan, binoning yil boshida balans qiymati 670 350 650 so'm, har yili operasion ijara berilishi natijasida 150 400 000 so'm ijara haqi olinishi kutilmoqda. Binodan besh yil foydalanish mumkin. Ushbu muddatdan keyin binoning yaroqsiz holga kelib qolishi natijasida to'liq tugallanishi kutilmoqda. Korxonaga agar chetdan mablag' jalb etadigan bo'lsa, uning o'rtacha stavkasi 7%ni tashkil etadi. Ijara



to'lovlari har yilning oxirida amalga oshiriladi. Shartnoma har yili yangilanadi. Korxonaga mutaxassislarining fikricha operatsion ijara summasi har yili o'zgarishsiz qoladi. Ijara to'lovlarning keltirilgan summasini baholashga zaruriyat mavjud deb o'ylaymiz. Binoning bugungi kundagi adolatli qiymati 750 450 000 so'm. Sotish xarajatlari 85 000 000 so'm.

Ijara to'lovlarning keltirilgan qiymatini hisoblash uchun quyidagi jadvalni rasmiylashtiramiz (1-jadval).

Samarqand don mahsulotlari AJ ijara to'lovlarning keltirilgan joriy qiymati

| Ijara to'lovlari sanasi | Ijara to'lovlari bo'yicha pul oqimi | Mablag'larni jalb qilish stavkasi | Keltirilgan qiymati |
|-------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------|---------------------|
| 31.12.2022 | 150 400 000 | $\frac{1}{(1 + 0.07)^1}$ | 140 5 60 748 |
| 31.12.2023 | 150 400 000 | $\frac{1}{(1 + 0.07)^2}$ | 131 365 185 |
| 31.12.2024 | 150 400 000 | $\frac{1}{(1 + 0.07)^3}$ | 122 771 201 |
| 31.12.2025 | 150 400 000 | $\frac{1}{(1 + 0.07)^4}$ | 114 739 440 |
| 31.12.2026 | 150 400 000 | $\frac{1}{(1 + 0.07)^5}$ | 107 233 121 |
| Jami | | | 616 669 695 |

Binoning "sotish xarajatlari chegirilgandan keyingi adolatli qiymati" – 665 450 000 ming so'mga teng (750 450 000 – 85 000 000).

Binoning foydalanish qiymati keltirilgan baholarda 616 669 695 so'mni tashkil etadi.



Standart qoidalariga muvofiq qoplanadigan qiymati sifatida ushbu ikkita summadan eng kattasini olamiz.

Qoplanadigan qiymat: (Sotish xarajatlari chegirilgandan keyingi adolatli qiymati) 665 450 000 so‘m > (Binoning foydalanish qiymati) 616 669 695 so‘m

Binoning balans qiymati 670 350 650 so‘m qoplanadigan qiymat 665 450 000 so‘mdan katta. Demak, ushbu holatda standart qoidalariga muvofiq qadrsizlanishdan zarar yuzaga kelgan. Ushbu summani quyidagicha aniqlaymiz:

**Qadrsizlanishdan zarar = Binoning balans qiymati – qoplanadigan qiymat
= 670 350 650 – 665 450 000 = 4 900 650 so‘m**

Ushbu summaga quyidagi buxgalteriya yozuvini berish tavsiya etiladi.

*D-t 9430 “IKM qadrsizlanishdan zarar”..... 4 900 650
so‘m*

*K-t 0320 “IKM bo‘yicha jamg‘arilgan qadrsizlanishdan zarar” 4 900
650*

Asos: Samarqand don mahsulotlari IKM ob'ekti hisoblangan binoning balans qiymati 670 350 650 so‘m. Binoning qoplanadigan qiymati hisob-kitoblar asosida sotish xarajatlari chegirgan adolatli qiymati va binoing foydalanish qiymatidan eng kattasi sifatida olingan va bu ko‘rsatkich 665 450 000 so‘mni tashkil etgan. Balans qiymati qoplanadigan qiymatdan katta bo‘lganligi sababli qadrsizlanishdan zarar summasi 4 900 650 so‘m (670 350 650 – 665 450 000)ni tashkil etdi.

IKM bo‘yicha qadrsizlanishdan zarar dastavval korxonada gudvil mavjud bo‘lsa uning kamayishiga olib boriladi. Qolgan qismini bizning fikrimizcha, jamg‘arilgan qadrsizlanish schyotida tutib turish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, xalqaro standartlar qoidalariga muvofiq IKMni “boshlang‘ich qiymati bo‘yicha hisobga olish modelini tanlagan kompaniyalar boshlang‘ich tan olingandan so‘ng investisiyaviy ko‘chmas mulkka doir barcha ob'ektlar jamg‘arilgan amortizatsiyasi va aktivlarning qadrsizlanishidan zararni chegirib tashlangandan keyingi boshlang‘ich qiymati bo‘yicha hisobga olinadi” degan qoida



amal qiladi. Ushbu qoidaga amal qiladigan bo'lsak, demak to'g'ridan-to'g'ri qadrsizlanishdan zararni gudvilni kamaytirishga olib borgan qismidan qolgan summasini IKMning balans qiymatining kamayishiga olib borish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun IKMlarning qadrsizlanishidan zararni jamg'arib boramiz. Korxonada davomiy baholash asnosida IKMlarni boshlang'ich qiymat modeli asosida baholashni tanlasa, u holda uning boshlang'ich tan olingan qiymatidan jamg'arilgan amortizatsiya va jamg'arilgan qadrsizlanishdan zararni ayirish talab etiladi.

Yuqoridagi keltirilgan amaliy misolda jamg'arilgan amortizatsiya summasi chegirilgandan keyingi investitsiyaviy ko'chmas mulk ob'ektining balans qiymati 670 350 650 so'mni tashkil etadi. Kompaniya qadrsizlanishdan zarar aniqlangandan keyingi holat bo'yicha ushbu binoni boshlang'ich qiymat modelida hisobga olishga qaror qildi va hisob siyosatida ko'zda tutildi. Binoning boshlang'ich qiymat modeli bo'yicha qiymati 665 450 000 so'mni (670 350 650 – 4 900 650) tashkil etadi. Ushbu jarayonni quyidagi buxgalteriya yozuvida aks ettirishni taklif etamiz.

D-t 0320 “IKM bo'yicha jamg'arilgan qadrsizlanishdan zarar” 4 900 650 so'm

K-t 0192 “Investitsiyaviy ko'chmas mulk: bino”.....4 900 650

Asos: Samarqand don mahsulotlari AJda 31.12.2022 holat bo'yicha balans qiymati (amortizatsiya jamg'armasi chegirilgandan keyingi) 670 350 650 so'm bo'lgan. Ushbu sanada 0320 “IKM bo'yicha jamg'arilgan qadrsizlanishdan zarar” 4 900 650 so'm jamg'arilgan. Kompaniya 01.01.2023 yildan e'tiboran boshlang'ich qiymatda hisobga olish modelini tanladi. Jamg'arilgan zarar summasini IKMning boshlang'ich qiymatining kamayishiga olib borildi.

Ushbu uslubiy tartiblar IKM xalqaro standartlar talablariga muvofiq tasniflashga, qadrsizlanish alomati bo'lgan taqdirda zararni tan olish va uni qoplash mexanizmlarini to'g'ri qo'llash imkoniyatini beradi.



Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar (sun‘iy intellekt, Big Data, ERP tizimlari va blokcheyn) investitsiyaviy ko‘chmas mulklar buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish orqali hisob jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi, insoniy xatolarni kamaytiradi va ma‘lumotlarning real vaqt rejimida yangilanishini ta‘minlaydi. Avtomatlashtirish nafaqat hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi, balki mulk portfeli monitoringi, ijara to‘lovlarini kuzatish va qiymat o‘zgarishlarini avtomatik baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiyani joriy etish uchun maxsus dasturiy ta‘minotlar yaratish, buxgalter va moliyaviy mutaxassislar malakasini oshirish hamda tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Kelgusida bu yo‘nalishdagi ishlar investitsiyaviy mulklar hisobini zamonaviy talablarga moslashtirib, korxonalar boshqaruv samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.

2. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.

3. Ражабоев , Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ



ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.

4. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 60.1 (2026): 84-91.

5. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "ONLINE ASSESSMENT SOFTWARE IN DISTANCE LEARNING: MY TEST AND ISPRING PROGRAMS AND THEIR APPLICATION." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 299-304.

6. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz, and SHomurodova Yasminabonu Ilkhomovna. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASIDAGI KORXONALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 58.6 (2025): 7-13.

7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUT ER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O'RNINI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 578-581.

8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 558-564.

9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 571-577.

10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O'RNINI VA AHAMIYATI." *Экономика и социум* 4-1 (131) (2025): 449-453.